

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KASB TANLASH MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19189511>

Raxmatova Sevara Abdulloyevna

O'zbekiston Respublikasi Navoiy davlat universiteti, o'qituvchi.

Mob tel.: (998) 95 1718987

Annotasiya

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlari, odatda, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi-yoshlarning ta'limdagi muvaffaqiyati va kelgusidagi kasbiy rivojlanish yo'li ko'p jihatdan aynan maktab davrida kasbga yo'naltirish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi hamda karyera rejasining ongli va asosli ravishda shakllantirilishiga bog'liqdir.

Yevropa davlatlari, AQSh, Kanada, Yaponiya va Rossiya kabi aholi bandligi masalasi samarali yo'lga qo'yilgan mamlakatlarda maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimi jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda muntazam ravishda takomillashtirib boriladi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi – o'quvchi-yoshlarga ongli ravishda kasb tanlash va puxta karyera rejasini shakllantirishda ko'maklashishdan iborat. Bunda milliy mehnat bozori talablari, hududiy ehtiyojlar hamda o'quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi.

Kalit so'zlar: *maktab o'quvchilari, individual qobiliyatlar, kasb tanlash, mehnat bozori, kasbiy axborot, kasbiy maslahat, karyera rejasini, kasbiy diagnostika, kasbiy tayyorlik, qiziqishlar.*

Abstract

Vocational guidance of schoolchildren is usually carried out by specialists with special training. The educational success of young people and the path of their future professional development largely depend on the proper organization of the vocational guidance process during school and the conscious and well-founded formation of a career plan.

In countries where the issue of employment of the population is effectively addressed, such as European countries, the USA, Canada, Japan and Russia, the system of vocational guidance of schoolchildren is constantly being improved, taking into account the economic, political and social needs of society. The main goal of this process is to help young people make a conscious choice of profession and form a thorough career plan. This takes into account the requirements of the national labor market, regional needs, as well as the individual abilities, interests and personal characteristics of students.

Keywords: *schoolchildren, individual abilities, career choice, labor market, career information, career advice, career plan, career diagnostics, professional readiness, interests.*

Абстрактный

Профориентацией школьников обычно занимаются специалисты специальной подготовки. Учебные успехи молодежи и путь их будущего профессионального развития во многом зависят от правильной организации процесса профориентации в школе и осознанного и обоснованного формирования карьерного плана.

В странах, где эффективно решается вопрос занятости населения, таких как европейские страны, США, Канада, Япония и Россия, система профориентации школьников постоянно совершенствуется с учетом экономических, политических и социальных потребностей общества. Главная цель этого процесса – помочь молодежи сделать осознанный выбор профессии и сформировать всесторонний карьерный план. При этом учитываются требования национального рынка труда, региональные потребности, а также индивидуальные способности, интересы и личностные характеристики учащихся.

Ключевые слова: *школьники, индивидуальные способности, выбор профессии, рынок труда, информация о карьере, советы по карьере, план карьеры, диагностика карьеры, профессиональная готовность, интересы.*

Har qanday davlat oldida turgan dolzarb va murakkab vazifalardan biri-aholi bandligini ma'lum darajada barqaror saqlab turishdir. Shu bois bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarda bandlik sohasini tartibga solish va unga samarali ta'sir ko'rsatish maqsadida maxsus siyosiy va iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Mazkur sharoitda zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri — o'quvchi-yoshlarni kelajakda ongli ravishda kasb tanlashga hamda kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga tayyorlashdan iborat. Bu jarayon ta'lim va tarbiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, yoshlarning shaxsiy rivoji va jamiyat ehtiyojlari uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifati ko'proq bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichlari orqali baholanmoqda. Natijada o'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishi, o'z qobiliyatlarini anglab yetishi hamda shaxsiy karera rejasini ongli va puxta shakllantirishi kabi muhim mezonlar yetarli darajada e'tiborga olinmayapti.

Holbuki, zamonaviy maktab zimmasiga nafaqat o'quvchilarga sifatli ta'lim berish, balki ularning ota-onalari hamda davlat oldidagi mas'uliyatni ado etish kabi dolzarb vazifalar yuklatilgan. O'quvchi-yoshlarning keyingi ta'lim yo'nalishi va kasbiy rivojlanish istiqboli, avvalo, maktab bosqichida kasbni to'g'ri tanlashiga bevosita bog'liq. Chunki yoshlarning kelgusida muvaffaqiyatli band bo'lishi maktab davrida shakllanadigan qiziqish, ko'nikma va yo'nalishlarga tayangan holda, kasb-hunar ta'limi tizimi hamda mehnat bozoriga kirish jarayonida namoyon bo'ladi.

Demak, maktab ta'limining haqiqiy samaradorligi o'quvchilarning kasbiy o'zini o'zi anglash va mustaqil ravishda to'g'ri kasb tanlash darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kasbga yo'naltirish yo'nalishida xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish, ushbu sohadagi ilg'or va zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish respublikamiz umumta'lim maktablarida

o'quvchi-yoshlarni mustaqil hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan samarali usul va mexanizmlarni o'z sharoitimizga moslashtirish orqali maktablarda kasbga yo'naltirish ishlarini yanada tizimli va natijador tashkil etish mumkin. Bu esa o'quvchilarning ongli kasb tanlashi, shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi hamda mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishiga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda kasbga yo'naltirish faoliyatining nazariy va uslubiy asoslari juda xilma-xildir. Xususan, Yevropa va AQShda kasbga yo'naltirish tizimi davomli va tizimli rivojlanish tarixiga, fundamental nazariy va amaliy negiziga ega bo'lib, muntazam ravishda jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashtirib boriladi [Дианина Е.В., 2017].

AQSh Konstitutsiyasida ta'lim tizimining ish tamoyillari belgilangan. Shunga ko'ra, kasbga yo'naltirish ta'lim tizimining bir qismi sifatida yagona asosga ega bo'lsa-da, har biri alohida shtat tomonidan amalga oshiriladi. Davlat – maktablarda kasbga yo'naltirishni samarali tashkil etish hamda maktab, o'quvchi, kollej, oliy o'quv yurtlari va ish beruvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tashkil etish uchun mas'ul hisoblanadi. Shuning uchun davlat o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus tuzilmalar faoliyatini tashkil etadi, moliyaviy ta'minlaydi va uni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi.

AQShda kasbga yo'naltirish faoliyatning uslubiy ta'minoti Karyerani rivojlantirish milliy assotsiatsiyasi (National Career Association - NCDA) zimmasiga yuklatilgan. Assotsiatsiya kasbiy faoliyat standartlarini ishlab chiqish, kasbiy maslahatchilarning faoliyat tamoyillarini belgilash, uslubiy va axborot materiallari va ushbu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan qonun loyihalarini ekspertizadan o'tkazish kabi vazifalarni bajaradi [Гриншпун С.С., 2005; 2006] [Корсун А.А., 2012].

Kasbiy axborot tarmog'i (Occupational Information Network) – turli xil kasbiy faoliyat turlarining mazmuni va shartlari, malaka va tibbiy talablar, turdosh kasblar, shuningdek, turli mutaxassislarni tayyorlaydigan ta'lim muassasalari ro'yxati bo'yicha ma'lumotlarning tarmoq bazasi AQShda 1998-yilda yaratilgan [Гриншпун С.С., 2005].

Maktabning "Karyerani boshqarish" maxsus maslahat xizmati ("Career Guidance") har bir o'quvchi haqida ma'lumot to'playdi, individual maslahatlar beradi, bitiruvchilarga ishga joylashishda ko'maklashadi, shuningdek, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati trayektoriyasini (karyera rejasini) nazorat qiladi [Гриншпун С.С., 2006] [Крупская Ю.В. и др., 2017]. Karyera rejasida o'quvchining o'z maqsadi sari harakatlanish trayektoriyasi belgilangan bo'lib, maqsadga erishish – kasbning kompetentliklari, psixofiziologik talablari, kasbiy tayyorgarlik, lavozimga ko'tarilish, kasbiy faoliyat yo'nalishini o'zgartirish kabilar ta'riflagan qadamlar, ularga erishish yo'llari, bosqichlari va muddatlari aks etadi [Hagans С.Л., 1991].

O'quvchilarning kasbiy rivojlanishi quyidagi manbalar ta'sirida amalga oshiriladi:

- 1) kasblarni tanlashga oid materiallar;
- 2) "Kelajak kundaligi" - o'ttiz yoshda ish va turmush tarzi bo'yicha subyekt erishadigan natijaning tavsifini olish maqsadida o'tkaziladigan so'rovnoma;

3) "Oilaviy mehnat namunalari" - ish va oilaviy hayotning mavjud namunalari tavsifini olish maqsadida o'tkaziladigan so'rovnoma;

4) karyeraga ta'sir qiluvchi guruxlarga bo'lingan omillarni o'rganish va ularni refleksiya qilish: oilaviy, ijtimoiy, individual, ijtimoiy-iqtisodiy, qisqa vaziyatli va psixo-ijtimoiy-emosional [Kirby C.A., 1988].

Yevropa maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning zamonaviy amaliyotlari mehnat bozori ehtiyojlari va yoshlarning individual xususiyatlarini e'tiborga olgish natijasida yuzaga kelgan. Kasbga yo'naltirish amaliyotlarining ayrimlari maktab o'quvchilarini kasblar olamiga singdirishning vaqt sinovidan o'tgan shakllarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, boshqalari aksincha, so'nggi paytlarda o'ziga xos munosabat va xulq-atvori bilan yangi avlod yoshlarining shaxsiy xususiyatlariga, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy-professional tuzilishining tez o'zgaruvchan konturlariga munosabat sifatida paydo bo'ldi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish amaliyotlari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularning negizi, asosi bitta ya'ni bunda mazkur amaliyotlar har-bir hududning ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilgan va, ehtimol, shu sababli ham ular nisbatan samaralidir [Мырашев А., 2019].

Fransiya va Shvetsiyada o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish tizimlari davlat tomonidan yuqori darajada tartibga solinganligi hamda ta'lim sohasi bilan mehnat bozori o'rtasidagi hamkorlikka asosiy e'tiborni qaratganligi bilan ajralib turadi [Кузнецов В., 2007].

Fransiyada kasbga yo'naltirish tizimi J.Piajening kognitiv yondashuv g'oyasi va shaxsning kasbiy rivojlanish nazariyasiga asoslanib (1) davlat, (2) oila va (3) o'quvchining manfaatlarini hisobga olishida aks etib, yoshlarning o'z taqdirini o'zi belgilash muammolariga qiziqishini shakllantirishga e'tibor kuchaytirilmoqda [Романова Е.С., 2013: 254].

Shvetsiya maktablarida esa, AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlaridan farqli ravishda, kasbga yo'naltirish ishlari maktab direktori boshchiligidagi pedagoglar jamoasi tomonidan amalga oshiriladi [Кузнецов В., 2007].

Hozirgi paytda Shvetsiya maktablarida kelajakdagi kasbini tanlagan o'quvchilarga (taxminan 80%ga yaqin) faqat umumiy maslahat berish bilan chegaralanadilar. Qolgan o'quvchilar (taxminan 20%) bilan maxsus psixolog yoki kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha mutaxassislar muntazam ravishda kasbiy diagnostika va kasbiy maslahat ishlarini reja asosida olib boradilar [Крупская Ю.В. и др., 2017: 27].

Maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi: shaxsning kasbiy yo'nalishini psixologik diagnostikasi; o'quvchilar uchun individual psixologik maslahatlar; o'quvchilar uchun kasbiy o'zini o'zi belgilash masalalari bo'yicha oilaviy maslahat; taklif etilgan turli kasb vakillari bilan kasbga yo'naltirish soatlari; kasbga yo'naltirish darslari; korxonalariga tematik ekskursiyalar; ochiq eshiklar kunlariga tashrif buyurish; kasbiy yo'nalish bo'yicha shahar tadbirlarida ishtirok etish. O'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishda individual kasbiy yondashuv amalda qo'llaniladigan asosiy tamoyil bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy Finlyandiyada uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga asoslangan holda bir qator innovasion vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular qatoriga shaxsiy martaba yo'nalishlarini

belgilashda “hamkor-kasbiy karyera” (co-careering) konsepsiyasi, VIP-maslahat modeli va IT-texnologiyalarini kiritish mumkin [Гуртов В. А. др., 2019].

Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish ishlarini bazaviy pedagogik ma'lumotga hamda kasbga yo'naltirish va maslahat berish sohasida qo'shimcha ma'lumotga yoki kasbga yo'naltirish va maslahat berish sohasida magistr darajasiga ega bo'lgan mutaxassislar (150-200 nafar o'quvchiga 1 nafar mutaxassis) tomonidan amalga oshiriladi. Finlyandiya maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarida ota-onalar faol ishtirok etadilar. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda, guruh mashg'ulotlariga qaraganda, individual mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratiladi. Finlyandiya maktablarida kasbga yo'naltirishning asosiy tamoyillari – nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash hamda maktabdagi kasbga yo'naltirish tizimini insonning hayoti davomida kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimiga integratsiya qiladigan, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim berishdir.

Rossiyada o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish tadbirlari, umumiy o'rta ta'lim maktablaridan tashqari, ijtimoiy-mehnatga moslashish va kasbga yo'naltirish bo'yicha davlat va xususiy markazlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Tadbirlar bo'lajak kasb sohasini tanlash bo'yicha psixologik maslahat berish va shaxsning kasbiy yo'nalganligini tashxis qilish, shuningdek, OTM tanlashda va faoliyatning eng afzal yo'nalishlarini aniqlashda yordam beradi. [Александрова Н.А. и др., 2016] [Митюрникова Л.А., 2005].

Germaniya o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maktab ta'limi yo'nalishiga, shuningdek, maktab va sinfning umumiy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari e'tibordan chetda qolmoqda. Kasbiy maslahatning ta'siri maslahat berayotgan mutaxassisning kompetentligiga bog'liq. Ishga joylashtirish agentligi beradigan maslahat esa maktab bitiruvchisining kasbiy malakasini rivojlantirishga oid rejalar diapazonini qisqartirishiga olib keladi va birmuncha notanish kasbiy faoliyatda yangitdan ko'nikma va malakani shakllantirish ehtimolini oshirmoqda [Fitzenberger B. and othe., 2020].

Kanada ta'lim tizimiga ko'ra, kasb-hunarga yo'naltirishning mobil markazlarida zamonaviy kompyuter vositalaridan foydalangan holda o'quvchilar mustaqil ravishda kasblar, har bir kasb uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, kasbiy ta'lim olish imkoniyatlari, mahalliy va milliy mehnat bozorlarida kasb-hunarga bo'lgan talab, taklif va ehtiyojlar haqida ma'lumotlar oladilar [Романова Е.С. и др., 2013: 262].

Xorijiy davlatlarda maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlari yuqori malakali, sertifikatlangan kasbiy maslahatchilar tomonidan amalga oshiriladi. Kasbiy maslahatchilarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni kasblarning turlari va mehnat bozoridagi vaziyat to'g'risida xabardor qilish;
- kasblar mazmuni to'g'risida ma'lumot izlashlarida yordam berish;
- kasbga yo'naltirish darslarini uslubiy ta'minotini amalga oshirish;
- maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish.

Kasbga yo'naltirish ishining eng samarali bosqichi – o'quvchilarning kasbiy moslashuvi bo'lib, bu borada Yaponiya va Buyuk Britaniya ko'p yillik muvaffaqiyatli tajribaga ega. Yaponiyada maktab o'quvchilari amaliy tajriba orttirish va uni o'z qobiliyatlari va ko'nikmalari bilan qiyoslash imkonini beradigan kasbiy mashq testlaridan o'tadilar. Ushbu tizim professor S.Fukuyama konsepsiyasi va uning diagnostika usuli "F-test"ga asoslangan. Kasbga yo'naltirish to'liqsiz o'rta maktabni bitirishidan ikki yil avval boshlanadi. Kasbga yo'naltirish tizimi o'quv jarayoniga integratsiyalashgan bo'lib, umumta'lim maktablari o'quv dasturining asosini tashkil etadi va ikkita asosiy tamoyilga asoslanadi: (1) o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati va (2) kasblarni tahlil qilish qobiliyati. S.Fukuyamaning fikriga ko'ra, bola ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlanishi uchun 13-14 yosh eng mos keladigan davr [Гуткин М.С., 1999].

Buyuk Britaniya maktablarida kasbga yo'naltirish tizimi konseptual jihatdan turlicha bo'lgan bir nechta yondashuvlarga va, eng avvalo, kasbiy maslahat hamda mini-korxonalarda kasbiy ta'lim doirasida o'tiladigan kasbiy amaliyot sifatiga asoslanilgan [Крупская Ю.В. и др., 2017: 27].

Kasbiy maslahat malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilib, ushbu lavozim Buyuk Britaniya va AQShda maktab o'qituvchi-pedagoglari jamoasi a'zosi maqomiga ega bo'lsa, Fransiyada sinfning kasbga yo'naltirish Kengashi tarkibiga kiruvchi Kasbga yo'naltirish markazi xodimi sifatida sinf rahbari va maktab psixologi bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi [Шамсутдинова И.Г., 2007].

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalasida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish, ushbu sohada respublikamiz maktablarida bir qator ilmiy-uslubiy va tashkiliy ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi.

Maktabning kasbga yo'naltirish tizimi o'quvchilarga karyera rejalarini shakllantirish borasida maxsus va individual maslahatlar berish hamda bu borada ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish, bitiruvchilarga ishga joylashishda ko'maklashish, shuningdek, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati trayektoriyasini nazorat qilishdan iborat bo'lishi kerak.

Maktablarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari quyidagi tamoyillar asosida tashkillashtirish tavsiya qilinadi:

- maktabda nazariy bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash hamda kasbga yo'naltirish tizimini inson hayoti davomida kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimiga integratsiya qiladigan ta'lim berish;
- o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarida ota-onalarning faol ishtirok etishi;
- kasblar, har bir kasb uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, kasbiy ta'lim olish imkoniyatlari, mahalliy va milliy mehnat bozorlarida kasb-hunarga bo'lgan talab, taklif va ehtiyojlar haqida ma'lumotlar bazasining mavjudligi;
- o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ularning individual xususiyatlari hamda mahalliy va milliy mehnat bozorlarining ehtiyojlarini hisobga olish;
- kasbiy maslahat beradigan mutaxassisning yuqori darajada kompetentlikga ega bo'lishi;

– ta'limda muvaffaqiyat qozona olmagan o'quvchi-yoshlarning mehnat bilan bandligini ta'minlash;

– o'quvchilarda o'z-o'zini tahlil qilish va kasblarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirish.

– Kasbga yo'naltirish bo'yicha kasbiy maslahatchi o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiradi:

– o'quvchilarni kasblarning turlari va mehnat bozoridagi vaziyat to'g'risida xabardor qilish;

– kasblar mazmuni to'g'risida ma'lumot izlashda yordam berish;

– o'quvchilarni kasbiy tashxis qilish (zaruriyatga qarab);

– kasbga yo'naltirish darslarining uslubiy ta'minotini amalga oshirish;

– maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlari tizimli xarakterga ega bo'lib, u davlat darajasida tegishli normativ aktlar asosida tartibga solinadi, kasbga yo'naltirish muddati, uni amalga oshirish shakllari va usullarining aniq belgilanganligi hamda ushbu soha mutaxassislari uchun maxsus malaka talablari ishlab chiqilganligi diqqatga sazovordir. Xorijda maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimli va individual yondashuv asosida ishlash tamoyillariga asoslangan bo'lib, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiriladi.

Shubhasiz, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish sohasidagi zamonaviy tajribalarni yana-da chuqurroq va tizimli ravishda o'rganish hamda xalqimizning boy tarixi, urf-odatlar va qadriyatlarini hisobga olgan holda maktablarda amaliyotga jorish etish respublikamizda bandlik muammosini hal etishda ijobiy qadam bo'lib xizmat qilishi aniq. Bundan tashqari, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirishni tizimli yo'lga qo'yish, maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish tizimini insonga butun umri davomida kasb-hunar ta'limi va kasblar olamida hamrohlik qilishning keng tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash uchun tarmoqdagi barcha o'zaro manfaatdor tashkilotlar, maktab jamoasi va ota-onalarning samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqilishi taqozo etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Fitzenberger B, Hillerich-Sigg A. and Sprietsma M. Different counselors, many options: Career guidance and career plans in secondary schools // German Economic Review 21, no. 1 (April 28, 2020): 65–106. <http://dx.doi.org/10.1515/ger-2019-0027>.

2. Hagans C.L. The relationship of parental subsystem to high school and college students' career self-efficacy // Virtual Press, 1991. <http://liblink.bsu.edu/uhtbin/catkey/833008>.

3. Kirby C.A. Career and life style aspirations of gifted Canadian secondary school females // Diss., The University of Arizona, 1988. <http://hdl.handle.net/10150/184544>.
4. Александрова Н.А., Брюхова О.Ю. Профессиональная ориентация в фокусе внимания государства: проблемы, противоречия, пути решения // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики, 2016. – № 9. С. 13-16.
5. Амбарова П.А., Немировский М. В. Новые подходы к профессиональной ориентации в школе в условиях изменяющегося мира профессий // Образование: вызовы нового времени / Известия Уральского федерального университета. Серия 1. Том 26, № 1 (2020) <https://journals.urfu.ru/index.php/Izvestia1/issue/view/385>. –С. 188-199.
6. Гриншпун С.С. «Академия Х»: подготовка американских школьников к жизни и труду / Педагогика. – 2006. - №4. – С. 103-108
7. Гриншпун С.С. Профессиональная ориентация школьников в США // Педагогика. – 2005. №9. – С. 65-72.
8. Гуртов В. А., Колесников В. Н., Питухина М. А. От традиционной модели профориентации к системе сопровождения и консультирования на протяжении всей жизни: опыт Финляндии [Электронный ресурс] // Непрерывное образование: XXI век. 2019. № 2 (26). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ot-traditsionnoy-modeli-proforientatsii-k-sisteme-soprovozhdeniya-i-konsultirovaniya-na-protyazhenii-vsey-zhizni-opyt-finlyandii>
9. Гуткин М.С. Использование Ф-теста для диагностики развития профессионального самосознания школьников // Психология. 1999. № 3. С. 114-121.
10. Дианина Е.В. Российская и зарубежные системы управления профессиональной ориентацией учащейся молодежи: сравнительный анализ // Социодинамика, 2017, №3. –С.10-17.
11. Корсун А.А. К вопросу о профессиональном самоопределении старшеклассников в работах отечественных и зарубежных учёных / А.А. Корсун // Transformation of approaches to education in Russia and CIS states: [колл. моногр.] – Штутгарт: ORT Publishing, 2012. С. 71-81.
12. Крупская Ю.В., Серкова Е.И. Зарубежный и отечественный опыт организации и реализации профессиональной ориентации детей и учащейся молодежи // Думский вестник: Теория и практика дополнительного образования N 1(9)/2017. –С. 25-28.
13. Кузнецов В. Зарубежный опыт организации взаимодействия рынка труда и системы профессионального образования // Народное образование. 2007. №1. С. 194-199.
14. Митюрникова Л.А. Комплексная система профессиональной ориентации молодежи как социальный институт общества: дис. ... канд. соц. наук / Л.А. Митюрникова. – М., 2005 – 201 с.
15. Мурашев А. Другая школа. Откуда берутся нормальные люди. М., 2019. 349 с.
16. Романова Е.С. Организация профориентационной работы в школе: методическое пособие / Е.С. Романова. М.: Издательский центр «Академия», 2013. 304 с.